

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**SHAMSHITDINOV MAQSUDBEK ELMUROD O‘G‘LI**

**LINTER MASHINASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI ENERGIYA  
TEJAMKORLIKNI HAMDA LINTNI SAMARALI TOZALASHNI  
TA‘MINLASH**

**05.02.03 –Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Shamshidinov Maqsudbek Elmurod O'g'li**

Lintir mashinasini takomillashtirish orqali energiya tejamkorlikni hamda lintni samarali tozalashni ta'minlash ..... 3

**Шамшитдинов Максудбек Элмурод Ўғли**

Усовершенствование сеясортировочного устройства в технологии подготовки посевных семян ..... 25

**Shamshidinov Maqsudbek**

Improvement of the seed sorting device in the technology of seed preparation ..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 50

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**SHAMSHITDINOV MAQSUDBEK ELMUROD O'G'LI**

**LINTER MASHINASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI ENERGIYA  
TEJAMKORLIKNI HAMDA LINTNI SAMARALI TOZALASHNI  
TA'MINLASH**

**05.02.03 –Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5355 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan muxandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifaciga [www.nammti.uz](http://www.nammti.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Aliyev Botirjon Toxirjonovich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy  
opponentlar:**

**Rasulov Ro'zimurod Xasanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Daliyev Shuhratjon Latipjanoich**  
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz muhandislik va agrotexnologiyalar  
universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.T.66.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "4" iyul soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy, Tel.: (+99869) 228-76-68, faks: (+99869)228-76-75, e-mail: [nei\\_info@edu.uz](mailto:nei_info@edu.uz), Namangan davlat texnika universiteti 6 binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (27 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160103, Namangan sh., Islom Karimov ko'chasi, 12-uy, Tel.: (+99869) 228-76-68.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «21» iyun kuni tarqatildi.  
(2025 yil «16» apreldagi № 32/3 raqamli reestr bayonnomasi).

**A.M.Maxkamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Sh.A.Mahsudov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**N.M.Safarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda to‘qimashilik sanoati ushun asosiy homashyo paxta tolasi hisoblanadi. Paxta homashyosini qayta ishlash texnikasi va texnologiyasini takomillashtirish bilan birgalikda unumdorlikni oshirish, mashinalarning tozalash samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan tola, lint va chigit sifatini yaxshilash vositalarini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida texnologik jarayonlarni boshqarish usullarini modernizatsiya qilish, asbob-uskunalar va texnologiyalarni loyihalashning avtomatlashtirilgan usullarini ishlab chiqarish, paxtani qayta ishlash jarayonini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan resurs tejovshi uskunalarni yaratish, paxta chigitini linterlash va lint sifatini oshirish hamda yelektr yenergiyasini tejovshi texnik vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxta xomashyosini qayta ishlash, jinlash va linterlash jarayonlarini takomillashtirish, ulardan chiqadigan mahsulotlarni qayta ishlash orqali sifatni oshirish maqsadida zamonaviy texnika va texnologiyalarni yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada paxta tozalash korxonalarida asosiy jarayonlardan bo‘lgan linterlash va lintni tozalash jarayonlarini avtomatlashtirish, jihozlar unumdorligini oshirish, asbob-uskunalarini resurs tejovchi uzellar bilan ta‘minlash, lint va chigitlarning sifatini yaxshilash uchun asosiy parametrlarni optimallashtiruvchi matematik modellarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, lint mahsulotini sifatini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan tozalash moslamasini ishlab chiqish hamda linterlash vaqtida lint sifatiga bevosita ta‘sir qiluvchi parametrlarni ratsional qiymatlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikada paxtani qayta ishlash sanoatini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishning texnologik darajasini oshirish, chigitni linterlash va lintni tozalash ushun yangi mashinalarni loyihalash, yaratilayotgan texnikalarning ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini ta‘minlash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida, jumladan, Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha: To‘qimashilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko‘paytirish hamda sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish bo‘yicha muhim vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan paxta tozalash sanoatida ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi tabiiy hususiyatlarini saqlash hamda resurstejamkor mahalliy texnologilardan foydalanib lint tarkibidan iflosliklarni ajratish va uning sifat ko‘rsatkishlarini oshirish ishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni, «Paxtachilik tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi 2017-yil 28-noyabrdagi PQ-3408 son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 253-sonli “Paxta

to'qimachilik ishlab chiqarish va klasterlar faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dissertatsiyada o'rganilayotgan rusumdagi linter quirlmalarini takomillashtirish orqali resurstejamkorligini orttirish, lint mahsuloti va chigit tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish va tozalash samarasini oshirish borasida xorijda J. Gino, Jr. Mangialardi, W. Stanley, D. Michael, S.E.Entoni, J. Prays, A. S. Griffin shug'illanishgan. Chigitlarni linterlash va lintni tozalash samaradorligini oshirish yo'nalishi bilan bog'liq fundamental va amaliy masalalarni hal etishda bo'yicha tadqiqotlar B.A.Levkovich, V.V.Dyachkov, M.V.Pokras, E.T.Maxsudov, X.T.Axmedxodjayevlar tomonidan bajarilgan.

Respublikamizda fundamental, ilmiy-metodologik va amaliy masalalarni hal etish bo'yicha tadqiqotlar A.A.Obidov, M.Tojiboyev, S.Azimov, J.Abduraxmonov, E.K.Nuraliyev, S. Ismoiljanov va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Shu bilan birga, hozirgi kungacha O'zbekistonda lint tarkibidan iflosliklarni samarali ajratish va qo'shimcha quirlmalar bilan jihozlangan yangi konstruksiyali linter mashinasini yaratish masalasi to'liq yechim topmagan. Linter mashinasining asosiy ishchi bloklarini modernizatsiya qilish masalasi dolzarb bo'lib, bunda arra silindridan ajratilgan lintni samarali tozalash uchun cho'tkali baraban qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qurilma arra tishidan ajratilgan lintni titib, havo kondensori orqali uzatadi, natijada lint to'rtli yuzadan o'tganida, tarkibidagi iflosliklar maxsus bunkerga tushadi. Shunday qilib, lint tarkibidan iflosliklarni samarali ajratish imkonini beradigan ilg'or lint tozalash qurilmasi ishlab chiqilishi mumkin bo'ladi.

Xorijiy davlatlarning paxtani qayta ishlash korxonalarida qo'llanilayotgan chigitni linterlash va lintni tozalash uskunalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mavjud texnologiyalar yetarlicha samarador emas. Ayniqsa, turli begona aralashmalardan lintni samarali tozalash, yuqori mahsuldorlikka ega lint tozalagichlarni ishlab chiqish hamda kerakli tuklilik darajasidagi chigitlarni ajratib olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida Namangan muhandislik-texnologiya institutida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar rejasi bilan o'zaro uzviy bog'langan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida amaliy tadqiqotlar davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan.

#### **Tadqiqotning maqsadi.**

linter mashinasidagi tozalash moslamasining takomillashtirilgan konstruksiyasini yaratish hamda mashinaga yenergiya tejoyvshi vosita joriy qilish hamda uning parametrlarini asoslashdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

takomillashtirilgan konstruksiyadagi linter mashinasini ishlab chiqarishga joriy yetish orqali chigitlarni linterlash va lintni tozalashning samarali texnologiyasini yaratish;

linter mashinasi tozalash moslamasining ishshi yuzasini takomillashtirish orqali tozalash samaradorligini oshirish hamda mahsulotni shiqindiga qo‘shilib ketishining oldini olish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish;

tozalash moslamasi to‘rli yuzasi shaklini o‘zgartirilganda lintni yuzadagi harakatlanishi, mahsulot tarkibidan iflosliklarning ajralib shqishi hamda havo oqimini yo‘nalishini nazariy tadqiqotlar orqali o‘rganish;

takomillashtirilgan linter mashinasiga yenergiya tejoyvshi vosita o‘rnatish hamda uning yeksrerimental konstruksiyasini yaratish va ishlab chiqarish sharoitida tajribalar o‘tkazish;

sinovlar natijasida iqtisodiy samaradorlikni hisoblash va moslamani ishlab chiqarishga joriy qilish.

**Tadqiqotning ob’ekti** sifatida paxta chigitini linterlash va lint tozalash moslamasining texnika va texnologiyasi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** chigitlarni samarali linterlash va lintni tozalash ushun linter mashinasining yangi konstruksiyadagi lint tozalash moslamasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mexanika usullari, mexanizmlar va mashinalar nazariyasi, oliy matematika va tebranishlar nazariyasi, texnologik mashinaning ish jarayonlarini matematik modellashtirish, matematik statistika va matematik hisob-kitoblardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

linterlash mashinasi dvigatelining reaktiv kompensatsiyasini o‘rganish orqali birinchi marta umumiy sarf qilinayotgan energiya miqdorini 20 % ga tejoyvchi CDI-E102G022/P030T4B chastota o‘zgartirgichi o‘rnatilgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

linter mashinasida lintni tozalash moslamasini takomillashtirish orqali mahsulotni tozalash samaradorligini 66 % ga oshiruvchi, 45<sup>0</sup> qiyalik burchagiga hamda 1600 mm uzunlikka ega to‘siq-plastinali to‘rli yuza konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

takomillashtirilgan to‘rli yuzaning barqaror va bir tekis tebranishini ta‘minlash imkonini beruvchi tebranish amplitudasi (0,16-0,31 mm) va chastotasining (3,33-27 Hz) uzviy bog‘liqligi asoslangan;

tajribalarni rejalashtirish usuli asosida takomillashtirilgan lint tozalash konstruksiyasi ishiga ta‘sir qiladigan asosiy omillar to‘rli yuza tirqishining uzunligi, to‘siq-plastina qiyalik burchagi va cho‘tkali baraban aylanish tezligining ratsional qiymatlarini aniqlashning matematik modeli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

linter mashinasida yelektr yenergiyasini tejash hamda lintni tozalash imkoniyatini beruvshi takomillashtirilgan konstruksiyadagi mashinani ishlab chiqarishga joriy qilish orqali korxonada yenergiya sarfini kamaytirish va sifatli lint olishga yerishilishi ishlab chiqilgan;

arrali linter ushun takomillashtirilgan tozalash moslamasi ishshi organlari va vositalarining konstruktiv va texnologik parametrlarini nazariy va tajriba yo‘li bilan aniqlangan;

takomillashtirilgan hamda yenergiya tejamkor linter mashinasi konstruktiv texnologik parametrlarini tanlash va energiyaning sezilarli kamayishi aniqlagan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** Nazariy hamda yeksperimental tadqiqotlar natijalari mutanosibli, aniqlangan parametrlarga yega ishshi qismlari bo‘lgan takomillashtirilgan qurilmada ishlab chiqarishda tajriba natijalari hozirgacha ishlatib kelingan yoki yaratilgan qurilmalar natijalari bilan solishtirilib asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mashinaga energiya tejamkor vositani o‘rnatish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilganligidadir. Shuningdek, lint mahsulotini bir vaqtning o‘zida iflosliklardan tozalash uchun joriy qilingan to‘siq-plastinkalarga ega to‘rli sirtida harakatlanayotgan lint massasini iflos aralashmalardan samarali tozalanishni ta‘minlovchi qonuniyatlar aniqlandi. Hamda qurilmaning ishonchligiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillarning optimal parametrlarini aniqlash uchun regression tenglamalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida takomillashtirilgan energiya tejamkor linter mashinasi va lint tozalash moslamasidan foydalanish orqali korxonada sanoatbop sifatli lint ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** dqiqot natijalarining joriy qilinishi. Takomillashtirilgan urug‘lik chigitlarni saralash qurilmasini joriy qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Linter mashinasiga energiya tejavchi qurilma o‘rnatilgan konstruksiya “NT Chust g‘alla klaster” MCHJ “Chust paxta tozalash” korxonasiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2024-yil, 13-dekabrda 03/25-3338-son ma‘lumotnomasi). Natijada linter mashinasining yillik energiya sarfi 525600 kVt ga tejalishiga erishildi;

Linter mashinasiga takomillashtirilgan tozalash moslamasi o‘rnatilgan konstruksiya “NT Chust g‘alla klaster” MCHJ “Chust paxta tozalash” korxonasiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2024-yil, 13-dekabrda 03/25-3338-son ma‘lumotnomasi). Natijada ish unumdorligi 1500 kg/soatni tashkil qilgan holda tozalash samaradorligi o‘rtacha 66 % ga ortishiga, lint mahsulotining ifloslik yig‘ish kamerasiga o‘tib ketishi paxta naviga bog‘liq holda 0,5-1 % gacha kamayishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 9 ta turli ilmiy konferentsiyalarda, shu jumladan 7 ta xalqaro, 2 ta Respublika konferentsiyalarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarini e‘lon qilinganligi.**

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ishlar shor yetilgan, shulardan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori (Rhd) dissertatsiyalari asosida ilmiy natijalarini shor yetish tavfsiya yetilgan nashrlarda 6 ta, jumladan 4 tasi Respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda hamda 1 ta ssorus konferensiyada maqola nashr yetilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, umumiy hulosalar va tavsifalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil yetadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari keltirilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalari amaliyoti, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Linter qurilmasda energiya sarfi va lint tozalash texnologiyasining bugungi kundagi holati**" deb nomlangan birinchi bobida adabiy manbalarni analitik tahliliga va linterlash jarayoni texnika va texnologiyalarining hozirgi holatiga bag'ishlangan. Ushbu bobda korxonada texnologik jarayonga energiya tejavchi vositalarni joriy qilish va chigitga birlamchi ishlov berish texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan.

Jinlash jarayonidan keyin chigitdan lint (momiq) va delint (tuk) nomi bilan yuritiladigan qisqa tolalar qatlami qoladi. Qayta ishlanadigan chigitli paxtaning seleksion va sanoat sortiga qarab chigitlarda jinlashdan keyin har xil miqdorda (chigitlarning boshlang'ich massasiga nisbatan) o'rta tolali paxta chigitlaridan 11...17% ingichka tolali paxta chigitlarida esa 2,4...5% gacha lint va delint qoladi. Jinlardan keyingi chigitsirtida qolgan momiq va delint umumiy og'irligining chigitning boshlang'ich og'irligiga nisbatan foiz hisobidagi miqdori chigitning umumiy tukliligi deb ataladi.

Asinxron dvigatelni aylanish tezligini o'zgartirishda qo'llaniladigan usullar.

Chastota o'zgartirgich yordamida asinxron motorning aylanish tezligini o'zgartirish.


1. Faza rotorli asinxron motor.
2. O'zgarmas tok motori.
3. Tezligi o'zgartirilishi lozim bo'lgan qisqa tutashgan rotorli asinxron motor.
4. Ish bajaruvchi mexanizm.

Reaktiv quvvatni to'g'ri taqsimlash va kuchlanish rejimlarini bir foizga yaxshilash tufayli energiya tizimlarida elektr energiyasi yo'qotishlarini kamaytirish katta moliyaviy resurslarni tejaydi. Quvvat manbai kuchlanish va chastotaning maqbul, barqaror qiymatlarida doimiy bo'lsa, quvvat sifatli deb ta'riflanadi va tekis sinuoidal grafik shakliga ega bo'ladi.

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlar tahlilidan tola va lint ajratish jarayonlari samaradorligini oshirish maqsadida yangi zamonaviy energiya tejavchi moslamalarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lib, bu korxonada sarf qilinayotgan energiyani iqtisod qilish orqali sezilarli samara olib kelishi bo'yicha dastlabki xulosalarga kelindi.


Dissertatsiyaning ikkinchi “**Qurilma elektr yuritmasining energiya sarfini nazariy tadqiq qilish**” bo’limida asosan elektr energiya tejoychi chastota o’zgartirgich tanlashda o’tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Paxta tozalash korxonasi uchun uni elektr ta’minoti sifatli va ishonchli bo’lishi zarur. Nosimmetriyaning mavjudligi toklarning teskari va nolli ketma-ketliklarini paydo bo’lishiga olib keladi. Bu toklar tarmoq elementlarida o’z navbatida kuchlanish o’g’ishini paydo bo’lishiga olib keladi. Tok nosimmetriyasi kuchlanish nosimmetriyasidan ancha katta bo’ladi. Shuning uchun rotorni qizishiga, uning ayrim qismlarini silkinishiga olib keladi. Fazalarning bir tekis yuklanmaganligi sababli toklar nosimmetriyasi tarmoqda va transformatorlarda o’tkazuvchanlik qobiliyatini kamaytiradi. Nosimmetrik kuchlanishlar va toklar nosimmetriya koeffitsientlari  $K_{nkva}$   $K_{ni}$  hamda toklar kuchlanishlarining muvozanatsizligi koeffitsientlari ( $K_{ok}$  va  $K_{oi}$ ) bilan tavsiflash mumkin.



**1-rasm. Linter mashinasi tok va kuchlanish modelini tahlil qilish diagrammasi**

1-rasmdagi model yordamida asinxron motorning stator chulg’amida sodir bo’ladigan nosimmetrik ta’sirlar natijasida magnit oqimning muvozanati buzilishini aniqlash imkoni mavjud bo’ladi. Yuqorida ko’rsatilgan algoritim o’lchangan va hisoblangan toklar o’rtasidagi farqni tekshirishi, aslida, motorning normal ishlashiga mos keladigan va birinchi navbatda an’anaviy tok spektral tahlilida ko’rinadigan elektr signalning tashkil etuvchilarini olib tashlashni anglatadi.



**2-rasm. Mashina asinxron motorida vujudga keladigan nosozliklarning asosiy sabablari**

Linter mashinasida asinxron motorning stator chulg’amiga qo’shimcha ravishda joylashtirilgan o’lchash chulg’amidan chiqadigan signal mashinaning diagnostik natijalari bilan birga uskunaning umumiy holatini ko’rsatadigan displeylar, motorning ishlatish mobaynida boshqariladigan parametrlarning o’zgarish grafiklarini ham olish mumkin.

Ushbu protsedura nosozliklarning diagnostik belgilari bo’lgan aniq komponentlarni o’rganishni sezilarli darajada osonlashtiradi. Asinxron motorlarda yuzaga keladigan nuqsonlarning asosiy sabablarini turli xil mexanik, elektrik va boshqa ichki va tashqi ta’sirlar hosil qiladi. Bu nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni ko’rib chiqamiz.

Bilamizki, korxonalarda moddiy yo’qotishlar asosan, nuqsonlar tufayli yuzaga keladi, ular turli xil bo’ladi. Ulardan, birinchisi 10% gacha bo’lgan qiymatni tashkil etuvchi muhim xarajatlarga bog’liq bo’lib, bu vosita ma’lum vaqt mobayni davomida elektr energiyasidan ortiqcha foydalanishni anglatadi. Ikkinchisi, to’g’ridan-to’g’ri deb

ataladigan, korxonada texnologik jarayonning buzilishiga olib kelishi mumkin, bu ko‘pincha kichik yo‘qotishlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Elektr yuritmadagi quvvat va energiya sarflari umumiy holda elektr dvigatel, mexanik uzatma, kuchli tokli o‘zgartkich va boshqarish tizimidagi sarflardan iborat bo‘ladi.

Quvvat sarflari  $\Delta R$ . Bunda elektr dvigateldagi sarflar elektr yuritmadagi sarflarning asosiy qismini tashkil etadi va, odatda, o‘zgarmas  $K$  va o‘zgaruvchan  $V$  sarflarning yig‘indisi sifatida ko‘rsatiladi:

O‘zgarmas sarflar deb, dvigatel tokiga bog‘liq bo‘lmagan quvvat sarflari tushuniladi. Unga, magnit o‘tkazuvchilarning po‘latdagi, podshipniklardagi ishqalanish orqali hosil bo‘lgan mexanik sarflar va ventilyatsion sarflar kiradi. Sinxron dvigatel va mustaqil qo‘zatishli dvigatellar uchun o‘zgarmas sarflarga qo‘zg‘atish cho‘lamidagi sarflar ham kiritiladi.

O‘zgaruvchan sarflar deb, dvigatel cho‘lg‘amlarida, ulardan oqib o‘tayotgan tok hisobiga ajralib chiqayotgan va elektr yuritmaning mexanik yuklamasiga bog‘liq bo‘lgan sarflar tushuniladi (odatda, ular misdagi sarflar ham deb ataladi).

O‘zgarmas tok dvigatellari uchun o‘zgaruvchan quvvat sarflari

$$V = I^2 R = I_n R \left( \frac{I}{I_n} \right) = V_n x^2 \quad (1)$$

bunda  $x = I/I_n$  - tok karraligi;  $V_n = I_n^2 R$  - nominal o‘zgaruvchan quvvat sarflari;  $I_n$  - dvigatelning nominal toki;  $R$  - cho‘lamlarning qarshiligi.

Uch fazali asinxron dvigatellar uchun

$$V = 3I_1^2 R_1 + 3I_n^2 R_2 \approx 3I_1^2 (R_1 + R_2) = V_n x^2 \quad (2)$$

Sinxron dvigatellar uchun

$$V = 3I_1^2 R_1 = 3I_{1n}^2 R_1 (I_1/I_n)^2 = V_n x^2 \quad (3)$$

(1) - (3) ifodalardan ko‘rinadiki, dvigatellar turiga boliqmas ravishda o‘zgaruvchan sarflar nominal sarflar va tok karraligi bilan aniqlanadi.

Dvigateldagi to‘la quvvat sarflari (1) – (3) larni hisobga olgan holda topiladi

$$\Delta R = K + V_n x^2 - V_n (\alpha + x^2) \quad (4)$$

bunda  $\alpha = K/V$  sarf koeffitsiyenti (ko‘pchilik normal bajarilgan dvigatellarda nominal quvvati va tezligiga bog‘liq ravishda u 0,5 ÷ 2,0 oraliqda bo‘ladi).

Dvigatelni nominal rejimda ishlashidagi ( $x=1$ ) quvvat sarflari, dvigatelning pasport ma‘lumotlari bo‘yicha quyidagicha aniqlanadi

$$\Delta R = \Delta R (1 - \eta_n) / \eta_n \quad (5)$$

unda  $\eta_n$  - nominal f.i.k.

O‘zgarmas quvvat sarflari quyidagicha topiladi:

$$K = \Delta R_n - V_n \quad (6)$$

Lintardagi energiya sarfi. Dvigatelning o‘zgarmas yuklama bilan ish vaqti  $t_i$  dagi energiya sarfi quyidagicha aniqlanadi

$$\Delta A = \Delta R \cdot \Delta t_i \quad (7)$$

Dvigatel siklli o‘zgaradigan yuklamalar bilan ishlaganda esa

$$\Delta A = \int_0^{t_n} \Delta P(t) dt \approx \sum_{i=1}^m \Delta P_i t_i, \quad (8)$$

bunda  $\Delta R_i$ ,  $t_i$  – dvigatelning  $x_i = I_i/I_n$  yuklamada ishlayotgan-dagi quvvat sarflari va ish vaqti;  $m$  - siklning alo‘ida uchastkalarining soni;  $\sum t_i = t_n$  - sikl vaqti.

Yuqorida keltirilgan formulalar, quvvat va energiya sarflarini hisoblashni elektrik o'zgaruvchilar va dvigatel zanjirlarining ko'rsatkichlari bo'yicha bajarish imkoniyatini beradi.

O'zgarmas tok dvigateli uchun quvvat sarflari quyidagicha aniqlanadi

$$\Delta R = UI - M\omega = kF\omega_0 I - kFI\omega = kF\omega_0 I (\omega_0 - \omega) / \omega_0 = R_1 \delta = M\omega_0 \delta \Delta \quad (9)$$

bunda  $\delta = (\omega_0 - \omega) / \omega_0$  - nisbiy tezlik

dvigatel statoridagi o'zgaruvchan sarflar

$$\Delta R_1 = 3I_1^2 R_1 \approx 3I_2^2 R_2 \quad (10)$$

yuqoridagi formula tenglamani o'ng qismini  $R_2$  ga ko'paytirib va bo'lib, quyidagini olamiz

$$\Delta R_1 = 3I_2^2 \frac{R_1 R_2}{R_2} = 3I_2^2 \frac{R_2 R_1}{R_2} = \Delta R_2 \frac{R_1}{R_2}$$

dvigateldagi to'la o'zgaruvchan sarflar

$$\Delta R = V = \Delta R_1 + \Delta R_2 = \Delta R_2 (1 + R_1 / R_2) = M\omega_0 s (1 + R_1 / R_2). \quad (11)$$

(11) formula, dvigateldagi o'zgaruvchan quvvat sarflarni ma'lum bo'lgan moment, sirpanish va qarshiliklar nisbati  $R_1$  va  $R_2$  orqali hisoblash imkoniyatini beradi. Energiya sarflari, bu holatlarda ham (6) va (7) ifodalar orqali hisoblanadi.

O'zgartgichdagi quvvat va energiya sarflari. Bu sarflar elektrik bo'lib, (1) va (6) formulalar bilan aniqlanadi. Dvigatelni boshqarishda yarim o'tkazgichli o'zgartkichdan foydalanilganda, ushbu sarflar - ventillar, transformatorlar, silliqlovchi va tenglashtiruvchi reaktorlar, filtrlar va sun'iy kommutatsiya qurilmalarining elementlaridagi sarflardan yig'iladi. O'zgartkichning yarim o'tkazgichli elementlaridagi sarflar nisbatan kichik bo'ladi. Transformator va reaktorlardagi sarflar hisobida ularning cho'lg'amlarini qarshiligi hisobga olinadi.

Kichik quvvatli boshqarish tizimidagi quvvat sarflari. Ushbu sarflar, odatda, bir necha o'n vatt dan ortmaydi va aniq energetik hisoblarni bajarishda hisobga olinadi.

Ishga tushirish, revers, to'xtatish, tezlikni o'zgartirish, yuklamani ortishi yoki kamayishidagi toklar, odatda o'zining nominal darajasidan ortib ketadi. Shu sababli, dvigatelda va elektr yuritmaning boshqa elementlaridagi sarflar juda sezilarli bo'lib, elektr yuritma ishlashining energetik ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, dvigateldan ko'paygan holda ajralayotgan sarflar, uning qo'shimcha isishini chaqiradi, bu ushbu sarflarni to'g'ri baholashning muhimligini ko'rsatadi.

Chastota o'zgartirgich orqali aylanishlar soni va quvvatni moslashtirish orqali mummolarni yechimlarini ko'rib chiqamiz.

Kamchiliklari bo'lsa-da, ularning afzalliklari ularni zamonaviy avtomatlashtirish va motor tizimlarida foydali va izlanuvchi komponentlarga aylantiradi.

Chastota o'zgartirgich turlari: Chastotani o'zgartirgichlarning bir nechta turlari mavjud, jumladan:

1. O'zgaruvchan va o'zgarmas kuchlanishli chastota o'zgartirgichlar (V/Hz): Bu chastota o'zgartirgichlar barqaror dvigatel momentini ta'minlash uchun kuchlanish va chastota o'rtasidagi doimiy nisbatni saqlaydi.

2. Vektorli chastota o'zgartirgichlar: Vektor chastota o'zgartirgichlar elektr motorining vektor maydonini aniq boshqarishni ta'minlaydi, bu esa tezlik va momentni boshqarishda yuqori aniqlikka erishish imkonini beradi


3. To'g'ridan-to'g'ri momentni boshqarish: Ushbu turdagi boshqaruvchi tezlik va rotor holatini qayta aloqaga muhtoj bo'lmasdan vosita momentini to'g'ridan-to'g'ri boshqarishni ta'minlaydi.

4. Sinus to'lqinli chastota o'zgartirgichlar: Sinus to'lqinli chastota o'zgartirgichlar dvigatel tezligini yengil nazorat qilish uchun sinusoidal kuchlanish va chastota hosil qiladi. Ular yuqori aniqlik va past shovqin darajasiga ega.

Yangi o'rnatish uchun motorlar yuqori tezlik rejimlarida ishlatilishi mumkin:

- 50 Gts gacha dvigatel yulduz o'rniga uchburchakka o'tadi (ba'zi shartlar bilan ruxsat etilgan vosita quvvati bir o'lchamga oshadi), 50 Gts dan keyin 100 Gts gacha momentning pasayishi kuzatiladi.

Moslashtirilgan motorli maxsus ilovalar uchun ishlab chiqaruvchidan maslahat olish kerak.




**3-rasm To'rt qutbli elektr motorining kritik momenti, nominal tezligacha va undan yuqori**

Shuni ham hisobga olish kerakki, mexanik tomondan, yuqori tezlikda ishlash podshipniklarning tez aşınması va fan shovqinining kuchayishi bilan birga keladi.

Foydalanilgan uslublardan so'ng linter qurilmasi arralari, val va elektrodvigateldagi mos ravishda ishlash vaqtining ortgani, mustahkamlik ortganligi va quvvatning samarali foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, invertorga ulangan asenkron motorning samaradorligini o'rganish dolzarb vazifadir.



**4-rasm Chastota o'zgartirgich orqali elektr energiya iste'molining kamayishi**

Umuman olganda, elektr motorlarini boshqarish uchun chastotali konvertorlardan foydalanish an'anaviy vosita boshqaruv usullariga nisbatan energiyaning kamida 30% ni tejash imkonini beradi. Misol uchun, agar siz ish chastotasini faqat 20% ga kamaytirsangiz, unda rasmda ko'rinib turganidek, elektr energiyasi iste'moli ikki baravar kamayadi.


Bu metod orqali val va arralarga tushayotgan yukning yengillanishi va bu orqali ularning ishlash muddatini ortishiga erishgan bo'lamiz.

Dissertatsiyaning uchinchi **“Takomillashtirilgan linter mashinasi tajriba konstruksiyasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash”** deb nomlangan bobida

qurilmaning asosiy ishchi organlarini tanlangan hamda nazariy taxlili asosida uning samarali ishlashi aniqlangan.

Dissertatsiya ishida taklif qilingan linter mashinasining prototipi bu 5LP tipidagi mashina hisoblanadi hamda tozalash moslamasi huddu shu mashinaning lint chiqarish qismiga cho'tkali baraban bilan o'rnatilgan. Umuman olganda dissertatsiyada ishlab chiqilgan energiya tejamkor linter mashinasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti olimlari tomonidan yaratilgan tozalash moslamali linter mashinasi modernizatsiya qilindi (5-rasm). Linter mashinasiga o'rnatilgan tozalash moslamasi lintni turli iflos aralashmalardan tozalash bilan birga texnologik jarayonga hech qanday tasir qilmaydi. Xozirgi kunda paxta sanoati korxonalarida muhim strategik mahsulot hisoblangan tolalni sifatli yetkazib berish asosiy vazifalardan biri bo'lib turibdi.

Yangi konstruksiyani yasashdan oldin, uni ishlab chiqarish imkoniyatlari mashinasozlik tomondan ham ko'rib chiqish lozim bo'ladi, ya'ni ishchi organlarini ishlash, ularga ishlov berish va boshqalar. Lekin asosiy metodika bu oldin olib borilgan tadqiqotlar natijalarida aniqlangan parametrlar asosida qabul qilinadi hamda korxonada mashina tipiga qarab ish unumdorligini ta'minlashi lozim bo'ladi. Shundan so'ng samaradorlik hamda boshqa parametrlarni o'rganish mumkin bo'ladi.




**5-rasm. Linter mashinasiga o'rnatilgan tozalash moslamasining sxemasi**

1-arrali baraban, 2-cho'tkali baraban, 3-quvur-o'tkazgich, 4-yo'naltirgich, 5-to'siq-plastinali to'rli yuza, 6-ifloslik kamerasi, 7-ifloslik chiqaruvchi shnek, 8-chiqish quvuri

O'rnatilgan to'rli yuzaning mustahkamligini ortirish uchun turli qalinlikdagi metallardan tajriba davomida foydalaniladi va 2 mm qalinlikdagi p'olat tanlab olindi. Yuzaning qalinligida aynan qancha chatota va amplituda titrash mavjudligini aniqlaymiz. Buning uchun chotkali barabanning chetki nuqtalarini chiziqli tezligi 15.7 m/s. Bundan kelib chiqadiki hom ashyo tezligi 15.7 m/s dan katta bo'la olmaydi. Uning massasini 0-1.78 kg oraliqda deb hisoblash uning impulsi quyidagicha bo'ladi.

$$P = dmdv = 1.78 * 15.7 = 27.946 \frac{kg * m}{s}$$

To'rli yuzada paydo bo'layotgan kuchni hisoblash amali shu yerda to'xtaydi. Yuzaga ta'sir qilayotgan kuch orqali chastota va amplitudani aniqlash uchun yuzaning Yung modulini inobatga olishimiz kerak po'lat uchun yung moduli  $E_p=200-210$  GPa ga teng. Torli yuza uchun Yung moduli va unga tushuvchi kuchlar orasidagi mutanosiblik quyidagicha.



**6-rasm. Torli yuzaga kelayotgan impulsning X o‘qi bilan tashkil qilgan burchaklari.**  $\alpha$  - torning o‘rnatish burchagi, X o‘qi bilan tashkil qilingan asosiy burchak.  $\beta$  - torli yuzaga tushayotgan impuls yo‘nalishi bilan X o‘qi orasidagi burchak.  $\gamma$  - impuls yo‘nalishi bilan teskari yo‘nalishdagi burchak, ya'ni  $180^\circ$  dan ikki marta  $\beta$  burchakni ayirish orqali topilgan burchak.

$$\lambda = \frac{Pl^3}{4ab^3E} \quad (12)$$

bu yerda: l-uzunlik, a-torli yuza eni b-qalinlik, E-Yung moduli elastiklik moduli. Torli yuza uchun tebranishda vujudga keluvchi amplitudani aniqlaymiz.

$$\lambda = \frac{(mv_x) - (\sqrt{(mv_x \cos \gamma)^2 + (mv_x \sin \gamma)^2})}{4ab^3E} \cdot l^3 \cdot 10 \quad (13)$$

Yuqoridagi kattaliklardan foydalanib torli yuza tebranish chastotasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz.

$$f = \sqrt{\frac{F}{4\pi^2 m X_0}} \quad (14)$$

Yuqoridagi formulalar orqali aniqlangan kattaliklardan quyidagi jadvalni tuzamiz.


1-jadval

No	To‘rli yuzaga uzrilishi mumkin bo‘lgan massa, kg $m$	To‘rli yuzaga urilayotgan tezlik, v/s $V$	To‘rli yuza amplitudasi, m $\lambda$	To‘rli yuza chastotasi, Gts $f$
1	0,5	15,7	$0,16 \cdot 10^{-3}$	3,38
2	0,55	15,2	$0,18 \cdot 10^{-3}$	4,87
3	0,6	14,7	$0,21 \cdot 10^{-3}$	6,67
4	0,65	14,2	$0,23 \cdot 10^{-3}$	8,77
5	0,7	13,7	$0,25 \cdot 10^{-3}$	11,1
6	0,75	13,2	$0,26 \cdot 10^{-3}$	13,6
7	0,8	12,7	$0,28 \cdot 10^{-3}$	16,2
8	0,85	12,2	$0,29 \cdot 10^{-3}$	18,8
9	0,9	11,7	$0,30 \cdot 10^{-3}$	21,2
10	0,95	11,2	$0,31 \cdot 10^{-3}$	23,4
11	1	10,7	$0,31 \cdot 10^{-3}$	25,2
12	1,05	10,2	$0,31 \cdot 10^{-3}$	26,5
13	1,1	9,7	$0,31 \cdot 10^{-3}$	27,4

Jadvaldan keyin matn yozishingiz uchun quyidagi misolni foydalanishingiz mumkin. Bu matn jadvalda keltirilgan natijalarni tahlil qilishga yordam beradi: Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko‘rinib turibdiki, to‘rli yuzaga urilish mumkin bo‘lgan massa oshgani sayin, tebranish amplitudasi va chastotasi ham o‘sib bormoqda. Masalan, agar to‘rli yuzaga 0.5 kg massa va 15.7 m/s tezlikda urilsa, amplituda 0.16 mm ga teng bo‘lib, chastota 3.38 Gts ni tashkil qiladi. Ushbu holatda paxta tozalash jarayoni samaradorligi past bo‘ladi.

Biroq, massaning 1.1 kg ga oshirilishi va urilish tezligining 9.7 m/s ga pasayishi natijasida amplituda 0.31 mm ga ko‘tariladi, bu esa chastotani 27.4 Gts ga yetkazadi.

Bu natijalar paxta tozalash jarayonida lintning samarali ajratilishi uchun zarur bo'lgan tebranish parametrlarining oshishini ko'rsatadi.




7-rasm. Tezlik amplituda va chastotaning o'zaro bog'liqlik grafigi

Natijalar shuni ko'rsatadiki, to'qli yuzaning elastik xossalari va uning o'lchovlari paxta tolalarining sifatini va tozalash jarayonining samaradorligini ta'sir qiladi. Shuningdek, to'qli yuzaga tushayotgan kuchlar va materialning elastik moduli ham jarayon samaradorligiga ta'sir qiladi.


Tadqiqot asosida shuni ta'kidlash joizki, lint tozalovchi moslamanning konstruksiyasini optimallashtirish va uning ish faoliyatini yaxshilash imkoniyatlari ko'rib chiqilishi zarur. Bu esa linterlashda lintni tozalash jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi va natijada ishlab chiqarilayotgan lint mahsulotining sifati sezilarli ortadi.

Linter mashinasi lint chiqarish qismiga o'rnatilgan yangi to'qli yuzaga to'siqli plastinalar o'rnatilgan, bu yo'naltirgichlar havoni va lintni chiqish quviri tomonga yo'naltirib, lintni to'r yuzasidan o'tib ketishini oldini oladi, havo, lint va iflosliklarni birgalikdagi harakatlari 450 burchak ostida o'rnatilgan tusiqqa urilish natijasida lintdan iflosliklarni ajratish jarayonini nazariy taxlil qilamiz (8-rasm).




8-rasm. Lintni takomillashgan to'qli yuz sirtidagi harakat sxemasi

Lint oqimi to'siqlarga ta'siri natijasidagi harakatini hamda undan ajralib chiqadigan iflosliklarni massasini o'zgarishi harakat tenglamalari orqali aniqlaymiz.



9-rasm Lint va iflos aralashmalarni ajratish sxemasi




**10-rasm. Lint oqimiga OX o‘qi bo‘yicha ta’sir kuchini to‘siqli plastinaning turli xil qiyalik  $\alpha_1 = 35^\circ$   $\alpha_2 = 45^\circ$   $\alpha_3 = 55^\circ$  burchaklarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafiği**

Lint oqimini havo oqimi yordamida uzatishda OX o‘qi bo‘ylab harakat differensial tenglamasini aniqlaymiz

$$x = \frac{k(d-p^2m)}{p(m^2p^2+k^2)} + \frac{kpm}{m^2p^2+k^2} e^{-\frac{k}{m}t} + \frac{k^2}{m^2p^2+k^2} \sin pt - \frac{kd}{pm^2p^2+k^2} \cos pt \quad (15)$$

(15) tenglama lint oqimining lentali qurilmada to‘siqli plastinalarga ta’siri natijasidagi harakat tenglamasini ifodalaydi bu tenglamadan lint oqimining harakatini Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlili keltirilgan.



**11-rasm. Lint oqimini yuzadagi OY o‘qi bo‘ylab harakatini to‘siqli plastina uzunliklarining turli xil  $l_1 = 8\text{ cm}$   $l_2 = 12\text{ cm}$   $l_4 = 16\text{ cm}$  burchaklarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafiği**

Yangi to‘rli yuzaning geometrik parametrlari hamda boshqa texnologik kattaliklari oldin olib borilgan tadqiqotlar asosida o‘rnatilgan metodikaga hamda nazariy tadqiqotlar natijalariga qarab o‘rnatildi. To‘rli yuza tayyorlangan po‘lat listni nazariy ishlarda aniqlangandek 2 mm qilib olindi, uni tashkil qiluvchi tirqishlari 4x8 hamda to‘siq-plastinalar balandligi 2 mm va kengligi tirqish kattaligi kabi 8 mm qilib olingan (12-rasm).



**12-rasm. Lint tozalash uchun to‘siq-plastinali to‘rli yuza ko‘rinishi**

Lintli massani ifloslikdan samarali tozalash uchun tirqishlarni tashkil qiluvchi to‘siq-plastinalar havo oqimi yo‘nalishi bo‘ylab  $45^\circ$  qiyalikda joylashgan bo‘lib, ularni havo bilan birga lintni iflosliklarga qo‘shilib tushib ketishining oldini oladi. Ushbu tirqishlar ustidan lintli massa sidirilib o‘tadi, titiladi va asta-sekin uning tarkibidagi mayda iflosliklar tirqishlar orqali pastdagi ifloslik kamerasiga tushadi.

Tanlab olingan kiruvchi omillar belgilangan chegaralarini inobatga olib matematik rejalashtirish ishlarini amalga oshirish lozim bo‘ladi, bu qiymatlar 3.6-

jadvalda keltrildi. Keyingi ishlarda matematik rejalashtirish usullari yordamida kiruvchi omillarning samaradorlikni ta'minlovchi eng maqbul qiymatlarini aniqlash uchun tadqiqotlar olib boriladi. Kiruvchi omillarning qiymatlari chegaralarini belgilashda ularning o'zgarish oraliqlari ham e'tiborga olingan. Har bir omilning qiymatlari yuqorida tahlil qilingan ma'lumotlar asosida, shuningdek, qiymatlarni o'zgartirish oraliqlariga mos ravishda belgilanishi lozim.

Tadqiq etilayotgan omillar o'zgarish sathlari va oraliqlarni tanlash

2-jadval

Omillar nomi va o'lchov birligi	Belgilanishi	O'zgartirish sathlari			O'zgartirish oralig'i $\Delta x$
		-1	0	+1	
To'rli yuza tirqishining uzunligi, ayl/min	$x_1$	4	6	8	2
To'siq-plastina qiyalik burchagi, gradus	$x_2$	30	45	60	15
Cho'tkali baraban aylanish tezligi, ayl/min	$x_3$	1000	1200	1400	200


Tajribalar natijalaridan kelib chiqib, ikkinchi darajali regressiya ko'p omilli matematik modelni qidiramiz. Ushbu tajriba natijasida quyidagi umumiy ko'rinishdagi regressiya modelini olishimiz mumkin:

